

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

7/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Эргашев Икром Абдурасулович – юридик фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохид Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Umurqulov Kamoliddin

O'ZBEK XALQINING OILAVIY MAROSIMLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI 9-12

Muhamedov Asror

G'ARB RENNESANSIGA TURTKI BO'LGAN OMILLAR 13-22

Jiyanbekova Sharofat Abdikaharovna

SOVET DAVRIDA KITOV TAQIQLARIGA NISBATAN O'ZIGA XOS SENZURA
AMALIYOTLARI 23-30

Сабитова Коринна Сабировна

ШКОЛЬНОЕ И СРЕДНЕ-СПЕЦИАЛЬНОЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В
УЗБЕКИСТАНЕ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ 31-37

Vaxabov Azizjon Xamidovich

USMONIYLAR SALTANATI VA O'RTA OSIYO XONLIKLARINING O'ZARO DIPLOMATIK HAMDA
ELCHILIK ALOQALARI 38-44

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Xolmuradov Musurmon Avlaqulovich

MAMLAKATIMIZ TIJORAT BANKLARI AKTIVLARI SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH
MASALALARI 45-51

Madiyev Shaxzod Shodmon o'g'li, Xurramova Zarina Xolboyevna

QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQRISHIDA TEXNIK SALOHİYATDAN FOYDALANISHNING
IQTISODIY MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI 52-57

Самадов Салохиддин Исмамович

ИННОВАЦИОН ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИ ВА УНИНГ ИҚТИСОДИЁТДАГИ ЎРНИ..... 58-66

Хуррамов Азамат Файзуллаевич

ИНСОН КАПИТАЛИНИ ЖАРАЁН-НАТИЖА ТАМОЙИЛИ АСОСИДА ТАҲЛИЛИ 67-74

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Sharipov Abdukhakimjon Ziyotdinovich

YANGI O'ZBEKISTON JAMIYATI TARAQQIYOTI IDEOSFERASIDAGI MA'NAVIY O'ZGARISHLAR
DINAMIKASI 75-80

Mustafaev Alimardon Alijonovich

THE MAIN VECTORS OF THE EVOLUTION OF COMPARATIVE PHILOSOPHY IN THE CONTEXT
OF CONTEMPORARY CIVILIZATIONAL DEVELOPMENT 81-89

Mamasaliev Mirzoulug' Mirsaidovich

"G'ARB MADANIYATIDA SABR-TOQAT KONSEPSIYASINING O'ZGARISHI" 90-95

Shadmanov Qurbon

FRENSIS BEKON INDUKTIV USULI VA TA'LIM, TARBIYA VA O'Z-O'ZINI TARBIYALASH
G'OYALARI 96-101

Usmonov Farkhod Lapasovich

PHILOSOPHICAL ANALYSIS FREEDOM OF INFORMATION 102-109

*Atakulov Mavlonbek Saitkulovich*YOSHLARNI SOG'LOM MA'NAVIY MUHIT ASOSIDA TARBIYALASHDA
FUQAROLIK MAS'ULIYATI O'RNI 110-115**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI***Amanov Abdijabbor Sattarovich*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MURAKKAB SINTAKTIK TUZILMALAR TAHLILI 116-121

Xudoynazarova O'g'lonoy Allamurodovna

DINIY BARQAROR BIRIKMALARNING STILISTIK XUSUSIYATLARI 122-125

*Hayitova Shohida Erkin qizi*KONSEPT TUSHUNCHASINING TALQINI VA KONSEPTGA OID TADQIQOTLAR
TASNIFI 126-132*Qodirova Mukaddas Tog'ayevna*

TILSHUNOSLIKDA BIZNES DISKURS: TADQIQ, TASNIF VA TAHLIL 133-138

Aripova Aziza Xasanovna

NUTQ MADANIYATI VA NUTQ ODOBI MASALALARINING TARIXIY TAKOMILI 139-143

*Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna*QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN
MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) 144-148*Axmedova Aziza Komilovna*

PSIXIATRIK BADIY TAHLIL ASOSLARI 149-153

Зокирова Шахзода Нодиржон қизи

ТЕЛЕВИЗИОН НУТҚНИНГ РИТОРИК АСПЕКТИ 154-158

Yusupaliyeva Fazilat Yusupaliyevna

METHODS IN TEACHING ENGLISH AND THEIR IMPORTANCE 159-163

Fayzullayeva Dilfuzaxon G'ulomjon qizi

ADIB QALBIDAN: QAHRAMON RUHIYATIDA YOZUVCHINING IZI..... 164-169

Negmatova Mumtozbeqim

UZBEK TERMINOLOGY FOR BANKING SECTOR 170-174

*Omondavlatova Latofat Ne'matulla qizi*O'TKIR HOSHIMOVNING "DAFTAR HOSHIYASIDAGI BITIKLAR" ASARIDA QO'LLANILGAN
LINGVOMADANIY BIRLIKLER TAHLILI 175-178**12.00.00 – YURIDIK FANLAR***Ismaylov Raxat Aminbayevich*NORMA IJODKORLIGI FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM NAZARIY-HUQUQIY
MASALALARI 179-183*Сеитниязов Камарбек Парахатович*ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС
ХУСУСИЯТЛАРИ 184-191

Нуруллаев Шохрух Шухратуллаевич

ҚУРИЛИШДА АТРОФ-МУҲИТНИНГ ҲУҚУҚИЙ МУҲОФАЗАСИ: ДАВЛАТ БОШҚАРУВИ ВА
НАЗОРАТИ 192-198

Hamdamov Shahzod Maqsud o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI TARAQQIYOTINING

HUQUQIY ASOSLARI 199-210

Шокиров Ойбек Азизжон ўғли

ҚОНУНИЙЛИК НАЗАРИЙ ТУШУНЧАСИ ВА УНИ МАҲАЛЛИЙ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ
ОРГАНЛАРИ ҚАРОРЛАРИДА ТАЪМИНЛАШНИНГ НОРМАТИВ-ҲУҚУҚИЙ

АСОСЛАРИ 211-218

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Bozorova Muslima Qodirovna, Istamova Dilnoza Norboyevna

RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI KASBIY FAOLIYAT UCHUN KO'P
BOSQICHLI TAYYORLASH ASOSLARI 219-222

Rabbimova Nodira Tashtemirovna

FROM SCALPEL TO BLACKBOARD: HOW MEDICAL TRAINING IS REVOLUTIONIZING

PEDAGOGICAL APPROACHES 223-227

Саидова Камола Усканбаевна

КОМПАРАТИВНЫЙ АНАЛИЗ МЕТОДОВ ВОСПИТАНИЯ В ВОСТОЧНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
МЫСЛИ 228-233

Худойназарова Дилрабо Абдурашидовна

БЎЛАЖАК ПЕДАГОГЛАРНИ МАЪНАВИЙ ТАРБИЯ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШНИНГ

ИЖТИМОЙ-ПЕДАГОГИК ЗАРУРАТИ 234-239

Гаффаров Азизжон Муҳаммадсаидович

МУСТАҚИЛ ТАЪЛИМ: МОҲИЯТИ ВА ЗАРУРАТИ 240-245

Buronova Iroda

UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARIDA MEDIAKOMPITENTLIKNI

RIVOJLANTIRISHNING USLUBIY ASOSLARI 246-250

Matyakubova Feruza Egamovna

ANATOMY OF LEARNING: BRIDGING THE GAP BETWEEN MEDICINE AND

MODERN EDUCATION 251-254

Received: 10 September 2024
Accepted: 15 September 2024
Published: 25 September 2024

Article / Original Paper

CONSIDERATIONS ON THE USE OF TABU AND EUPHEMISMS IN KARLUK DIALECTS (IN THE EXAMPLE OF SAMARKAND REGION)

Tillabayeva Zilola Rakhmatillayevna

Doctor of Philosophy in Philology (PhD), academic Lyceum of Samarkand
State Institute of Foreign Languages
tillabayeva87@bk.ru

Abstract. This article discusses the taboos and euphemisms used in the karluk dialects of the Samarkand region. Their study in world and uzbek linguistics is discussed. Also, these language units were analyzed based on the collected materials.

Key words: karluk dialects of Samarkand region, taboo, euphemism, religious belief, colloquial speech.

QARLUQ SHEVALARIDA TABU VA EVFEMIZMLAR QO'LLANILISHI YUZASIDAN MULOHAZALAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Tillabayeva Zilola Raxmatillayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand viloyati qarluq shevalarida qo'llaniluvchi tabu va evfemizlar to'g'risida fikr-mulohazalar yuritilgan. Ularning jahon va o'zbek tilshunosligida o'rganilishiga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, mazkur til birliklari yig'ilgan materiallar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati qarluq shevalari, tabu, evfemiz, diniy e'tiqod, so'zlashuv nutqi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI7Y2024N20>

Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligi o'zbek shevalari, ularning grammatik qurilishi, fonetik tuzilishi, lug'aviy tarkibida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish bo'yicha jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, shevalarga adabiy tilni oziqlantirib turuvchi manba sifatida munosabatda bo'lish, sheva va adabiy til munosabatini o'rganish, ayniqsa, shahar tipidagi lahjalarni tadqiq etish usullari va metodologiyasini zamonaviy talablar darajasida ishlab chiqish dialektologiya sohasi rivojiga xizmat qilishiga ko'ra nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero, Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev: "Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash" [1] zarurligini bejizga ta'kidlab o'tmaganlar. Zotan, "til doimo o'sishda, rivojlanishda bo'lgan dinamik hodisadir" [2; B.61]. Shu sababdan o'zbek tilshunosligida xalq shevalarining leksik xususiyatlarini alohida tadqiqot obyekti sifatida tadqiq etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Bu esa mazkur ish mavzusining o'zbek tilshunosligi uchun dolzarb ekanligini belgilab beradi. Yurtimiz

mustaqillikka erishgach, milliy qadriyatlarni jonlantirish, asrab-avaylash, keng ko'lamda targ'ib qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi. Bu, shubhasiz, milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sanaluvchi shevalarimizga ham xos. Shevalarning lug'aviy tarkibi, qo'llanish hududi, chegaralarini belgilash orqali ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Ularni o'rganish bo'yicha xorij va o'zbek tilshunosligida bir qancha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Ma'lumki, jahon tilshunosligida dialektologiya fani borasida shevalarni har tomonlama tadqiq qilish, lingvistik xaritalarini yaratish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Natijada nafaqat jahon, balki o'zbek tilshunosligida ham shevalar bo'yicha yig'ilgan qimmatli materiallar asosida millatlarning madaniy hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq talaygina so'zlarning adabiy til lug'ati tarkibiga kiritilganligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda, so'z va ularda sodir bo'lgan fonetik hodisalarning ro'y berishi umummilliy boylik darajasida xalqqa yetkazish haqida aniq ma'lumot olishga erishildi. Ta'kidlash joizki, shevalar adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan ancha qadimiy manbadir. Zero, hozirda bu so'zlarni imkon qadar to'plab tadqiq qilmasak, bunday noyob so'zlar iste'moldan chiqib ketishi mumkin. Sh.Shoadurahmonov haqli ta'kidlaganlaridek: "O'zbek adabiy tili leksik jihatdan o'zbek shevalarining barchasiga asoslanadi va ulardan zaruriy so'zlarni qabul qiladi. O'zbek adabiy tilining leksik normasi ham shu adabiy til xizmat qiladigan o'zbek xalqining tiliga, uning barcha shevalariga tayanadi" [3; B.172].

O'zbek xalq shevalari lug'atida so'zlarning shakl ma'mo munosabatiga ko'ra turlarini tadqiq etish qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, ulardagi tabu va evfemistik so'zlarni topib, ularning ma'nolarini aniqlash shunchalik muhim hodisa sanaladi.

O'zbek shevalarida tabu hodisasi deyilganda diniy e'tiqod, irim, qo'rqish va shu kabilar ta'sirida ma'lum so'z, harakat kabilardan tiyilish, ularni cheklash maqsadida yumshoqroq so'z bilan aytish tushuniladi. Qolaversa, tabular ayrim so'zlarning taraqqiyotini aniqlash imkonini beradiki, turkiy tillar tarixiy leksikologiyasini yaratish uchun qimmatli material beradi [4; B.66].

Tabu so'zi aslida indonezcha tabu-man qilmoq, cheklamoq, taqiqlamoq degan ma'nolarni anglatadi [5; B.50].

Shevalar tizimining murakkablik darajasi, asosan, ekstralingvistik omillar: shevaning alohidalanish (ajralib qolish) darajasi, muayyan sheva vakillarining boshqa shevalar va tillarning vakillari bilan [aloqa](#) qilish darajasi, adabiy tilning shevaga ta'siri va shu kabi omillarga bog'liq. Alohida ajralib qolgan shevalarda uning vakillari bilan atrofdagi aholi o'rtasida aloqalarning yo'qligi (geografik yoki siyosiy sabablar, atrofdagi aholining til, madaniyat, diniy e'tiqod jihatdan ayni sheva vakillaridan keskin farqlanishi tufayli), [sheva](#) vakillarining an'anaviy turmush tarzini saqlab qolishga astoydil intilishi oqibatida sheva juda sekinlik bilan o'zgaradi, katta va kichik yoshdagilarning tilidagi farq sezilarsiz darajada bo'ladi. Adabiy tilning yoki boshqa shevaning kuchli ta'siri ostida bo'lgan shevada aholining turli guruhlarining nutqiga xos bo'lgan, bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan va turli darajada farqlanadigan an'anaviy (qadimiy) va yangi qatlamlar ajralib turadi.

[Milliy til](#) tushunchasining hajmi va qo'llanish doirasi keng bo'lib, [lahja](#) va shevalarni ham qamrab oladi. Shevalar [adabiy til](#) tushunchasiga kirmaydi, biroq ular tilning quyi shakli va tarmoqlari hisoblanib, adabiy tilni boyitish uchun xizmat qiladi. Adabiy til me'yorlarining takomillashuvi, [fan](#) va [madaniyat](#) taraqqiyoti, [shahar](#) bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarning

kamayib borishi kabi ekstralingvistik omillar tufayli shevalar ham asta-sekin o'z xususiyatlarini yo'qota boradi.

Shevalarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish tilshunoslikda doimo dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Shu bois jahon tilshunosligida bu soha muammolari doimo tadqiqotchilar e'tiborida bo'ladi.

Ma'lumki, tilshunoslikda tabu va evfemizmlar XIX asrning oxirlaridan boshlab o'rganila boshlandi. XX asrning 60-80-yillaridan S.Vidlaka, Dj.Keyni, Dj.Lorenslar tadqiqotlari bilan bu ishni boshlab berishdi. Xususan, tabulashgan va evfemizmlashgan leksik birliklarning xususiyatlari rus va xorijiy tilshunoslar J.Eytoning "Evfemiyazmlar", "Tabu va evfemizmlar leksikasining inglizcha-ruscha lug'ati" M.Kansevaning "Til tabu va evfemiyasi", B.A.Larinaning "Evfemizmlar haqida", S.Vidlaksning "Til nazariy maydoni fonida evfemizmlarning roli", o'zbek tilshunosi N.Ismatullayevning "Zamonaviy o'zbek tili efemizmlari" nomli ishlarida o'rganilganligini alohida ta'kidlash lozim.

Dunyo tilshunosligida evfemizm hodisasi keng ko'lamda o'rganilgan. L.A.Bulaxovskiy, A.A.Reformatskiy, B.A.Larin evfemizmnini diaxron nuqtayi nazardan qadimiy tabu asosida o'rganishgan bo'lsa, rus tilida evfemizmlashuvning vosita va maqsadlarini tasvirlash bilan L.P.Krisin, V.P.Moskvin, V.Z.Sannikov, YE.P.Senichkina tadqiq etishgan. A.M.Katsev, N.S.Boschayeva, N.L.Saakayan, Y.S.Baskova va Ye.O.Miloyenko dissertatsiyalarida ingliz va rus tillaridagi evfemizmlarning mohiyatini ochib berishgan bo'lsa, G.A.Vildanovanning «Эвфемия и принцип вежливости в современном английском языке: гендерный аспект» nomli dissertatsiyasida ingliz tili evfemizmlarining gender jihatlarini atroflicha ochiqqlangan, N.Baskakov esa oltoy xalqlari tillaridagi evfemistik nominatsiyalarning muammolarini yoritib bergan.

Shuningdek, o'zbek tilshunosligida N.Ismatullayev va A.Omonturdiyevning ilmiy ishlarida evfemizm hodisasi, ularning uslubiy xususiyatlari, chorvador nutqida qo'llanuvchi evfemizmlarning lingvistik o'ziga xosliklari maxsus tadqiq qilingan. A.Omonturdiyev evfemizmnini uslubshunoslikning tadqiqot obyekti sifatida keng doirada o'rganib, "O'zbek nutqining evfemik asoslari", "Professional nutq evfemikasi" nomli monografiyalarida, "Bir so'z lug'ati", "So'z qo'llash san'ati", "O'zbek tilining qisqacha evfemik lug'ati" kabi ishlarida o'zbek nutqining evfemik asoslarini tadqiq qiladi. A.Mamatov, Z.Xolmanova, X.Qodirova va D.Rustamovanning ilmiy ishlarida esa frazeologizmlarning shakllanishiga evfemik va disfemik birliklarning ta'siri, "Boburnoma" asarida qo'llangan evfemizmlar, mualliflik evfemizmlari hamda evfemizmlarning metaforik xususiyatlari tahlil etilgan. 1980-yillardan keyin chop etilgan tilshunoslikka oid darslik va qo'llanmalarning so'zshunoslik hamda uslubiyatga bag'ishlangan o'rinlarida evfemizm hodisasi izohlangan. "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" darsligida va 1983-yilda nashr etilgan "O'zbek tili stilistikasi" o'quv qo'llanmasida evfemizm hamda kokofemizm (disfemizm) xususida ayrim umumiy ma'lumotlar berilgan edi. Ammo o'zbek tilshunosligida urf-odat leksemalarining tabu va evfemistik imkoniyatlari lingvomadaniy, lingvoma'naviy jihatlarini deyarli o'rganilmagan [6; B.788, 789].

Insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida istiqomat qilgan qoloq kishilar o'rta asrda irim-sirim, jin, arvoh singari g'ayritabiiy qarashlar, xurofotlarga, avliyolarga ishonish, sig'inish juda kuchli bo'lgan. O'sha davr e'tiqodiga ko'ra jin, arvoh kabilarga yaqin bo'lgan narsalar, tasavvurlar, kishilar nomi aytilmasa, ulardan saqlanish mumkin, degan fikrlar bo'lgan.

Hozir ham ayrim hududlarda biror oila a'zosi vafot etsa, uning narsalaridan foydalanish, tegish qat'iy man etiladi. Agar shu narsalarga teginilsa, jin, arvoh o'sha odamga zarar yetkazadi, deb yondashiniladi. Jumladan, birortasining yuzi qiyshayib qolsa (yuzdagi nerv tolalarining ta'sirlanishi natijasida mushaklarda harakatning yo'qolishi sodir bo'ladi deb emas), boshqasining ko'zi ko'rmay qolsa (chakka tomirlari arteriti bo'lganda bir vaqtning o'zida ikkala ko'z ham ko'rmay qolishi mumkin deb emas), balki arvoh yoki jin daxl qilgan deb o'ylaganlar. Biz aynan o'zbek shevalari leksikasini tadqiq qilish jarayonida bunday taqiqlangan so'zlarni kam miqdorda bo'lsa-da, borligiga guvoh bo'ldik. Bunday so'zlar asosan o'tmish qoldig'i sifatida urf-odat, irim-sirimlar, diniy marosimlarga bog'liq holda bog'bonlar, dehqonlar, chorvadorlar, ovchilar nutqida saqlanib qolganini aniqladik. Bunday kishilar ayrim yovvoyi hayvonlar, hasharotlarning nomini umuman tilga olishmaydiki, zarar yetkazishidan xavfsirashadi. Masalan, Samarqand viloyatining qarluq guruhiga mansub shevalarda bo'ri so'zi o'rniga *žāndār*, *uzunqulāq*, *kok jālli*, ilon so'zi o'rnida esa *āryāmči*, *bij*, chayon so'zi o'rnida *gāždum*, *ātsiz*, *nāmsiz* so'zlari ishlatiladi.

Shuni ham inobatga olish lozimki, tabulashtirish ma'lum bir xalqning yashash turmush tarziga chambarchas bog'liq. Qadimda Samarqand viloyatining eng chekka qishloqlarida botqoqlik, qamishzor bo'lganligidan isitma, bezgak, buqoq kasalliklari xalq orasida keng tarqalgan. Tug'ilgan chaqaloqlar yo tez-tez kasallanar, yo uzoq yashamas edi. Shu sababli mahalliy aholi tug'ilgan bolaning ismini tabulashgan so'zlardan qo'yar edilar. Masalan, O'lmas, Turg'un, Tursun, Ko'paysin, Turdimurod, Tursunmurod, Turdiqul va shu kabilar.

Bu nomlarda ota-onalarning farzandlariga nisbatan umri uzoq bo'lishi, yashab qolishi kabi ezgu tilaklari mujassamlashgan bo'ladi. Shuningdek, qarluq shevalarida muloqot qiluvchi oilalarda ayollar turmush o'rtog'ining orqasidan *ānāv*, *ānāvi kiši*, *oyliniz*, *ukāniz* deb, er ham turmush o'rtog'ini *ānāvi*, *kelin的角度* deb, er-xotinlar bir-birlarini *hej*, *hāj* deb chaqiradilar. Kelin erining ukasini *bālā*, qaynisinglisini *qiz* yoki *qizčā* deb chaqiradi. Bu holat qarindoshlar ismlarini tabulashtirish hodisasi sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq bu holat shahar atrofidagi qishloqlarda boshqacha namoyon bo'ladi. Er-xotin bir-birlarini ilk farzandlari tug'ilgach, uning o'g'il yoki qiz bo'lishidan qat'iy nazar nomi bilan atashadi. Masalan, erining ismi Rustam, ayolining ismi Fotima bo'lsa, ular bir-birlarini bosh farzandlarining ismi Umida nomi bilan atashlari kuzatiladi.

Shuningdek, qarluq shevalarida o'ldi so'zi turli birliklar bilan boshqacha ataladi. Masalan, *qāzā qipti*, *āmānātini tāpširipti*, *uzilipti*, *ālāmdān otipti*, *bāndālikni bāžā keltiripti* kabi. Bunday so'zlar shevada evfemizmlar deb ataladi.

Evfemizmlar (yun. yeirpegsha — yumshoq ifodalash) — so'zlovchiga aytish noqulay, no'rin yoki qo'pol tuyulgan so'z va iboralarning sinonimi sifatida paydo bo'lgan so'zlar [7]. Qarluq shevalaridagi evfemizmlar tabu so'zlar bilan birgalikda aloqador bo'lsa-da, o'z mazmun mohiyatiga ko'ra farqlidir. Zero ular kishilarning madaniy va idrok qobiliyati, saviyasi mahsuli o'laroq yuzaga kelgan. Soddaroq qilib aytganda, noqulay va qo'pol so'zlarni odob saqlagan holda muloyim so'zlar bilan almashtirib qo'llashdir. Masalan, o'zbek shevalarida chorvachilikda sigir va qo'ylarga nisbatan tug'di so'zi o'rnida *qozilādi*, *buzāvladi*, tuyachilikda *botālādi* kabi so'zlar qo'llanadi.

Shuningdek, mazkur shevalar doirasida odob, axloq nuqtayi nazardan ham talaygina evfemizmlar uchraydi. Masalan, tentak so'zi o'rnida *sāmān*, *gārān*, uylanmagan yigit ma'nosida *bozbālā*, *bojdāq*, bo'g'oz ma'nosida *ikkiqāt*, *jukli*, *āyirājāq* tarzida ishlatiladi. *Bomayir*– yomon,

betāb bolmāq–kasal bo‘lmoq, *juztā-yuztā ātmoq*–aroq ichmoq, *jergā qojmāq*–ko‘mmoq, *izzā bolmāq*–uyalmoq, *hājiqmāq*– qo‘rqmoq, *qoli egrirāq*–o‘g‘ri, *kājimāq*–urishmoq, *hiqqilāmāq*–biror ishni bajarishga qattiq undamoq va hokazo.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bunday tabu va evfemistik so‘zlar adabiy tilga kirib, o‘zlashib tilimizning lug‘at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Biroq shevalarda bunday so‘zlarning ko‘lamini aniqlash, ma‘nolarini izohlash fanimiz oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2018 йил, 28 декабрдаги “Тараққиёт йўлимизнинг шиддати янада ошаверади” мавзусидаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. 2018 йил, 29 декабрь.
2. Нурмонов А. Лингвистик тадқиқот методологияси ва методлари. – Тошкент: Академнашр, 2010.
3. Решетов В.В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси.–Ўқитувчи, 1978.– Б.172.
4. Ўзбек тили грамматик қурилиши масалалари. – Самарқанд, 1981. –140 б.
5. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. –Москва, 1953.–с 50.
6. Jo‘rahonova S. Urf-odat ifodalovchi leksemalarda tabu va evfemizmlar// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. –2022. –В 788, 789.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Evfemizmlar>
8. Dala materiallari.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/7 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).